

**TERMIZNING O'RTA OSIYO XALQLARI HAYOTIDA TUTGAN STRATEGIK, IQTISODIY VA DINIY HAYOTIDAGI O'RNI.**

**Qarshiyev Fazliddin Olimovich**

Termiz davlat pedogogika instituti

Tarix fakulteti tarix yo'nalishi talabasi.

**Annotasiya.** Ushbu maqolada Termiz shahrining kelib chiqishi haqida qisqacha aytib o'tiladi. Termiz toponimi to'g'risida, shaharning strategik joylashuvi, Termizning iqtisodiy jihatdan qulay tomonlari, Shahar hayotida Amudaryoning o'rni shahar xunarmandchiligi, Termizlik hakim va muhandislar haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Taramastxa, Tarmita, Demetriy, Tami, Termiz, Ellin, Amudaryo, Sho'rob, temir yo'l, karvon yo'li, miskarlik, so'zi xujjat, Hakim.

Surxondaryo bu o'zing Ko'p ming yillik tarixiga ega bo'lgan va dunyodagi eng qadimiy insonlardan biri yashagan, dunyo islomshunosligida, jahonga budda dinining tarqalishida hissasi katta bo'lgan, xususan o'z zaminida ko'plab buddist rohiblarni yetishtirib chiqargan va ular buddaviylik dinining sharqiy Osiyoga tarqalishida katta ro'l o'ynagan va shuning bilan bir qatorda siz va bizga ma'lum bo'lgan buyuk ipak yo'lining ajralmas bir qismi bo'lganligi hamda o'zining strategik joylashuvi orqali sharq bilan g'arbn, shimol bilan janubni bog'lay oladigan muhim mintaqa hisoblanadi. Bu hududda ko'pdan ko'p ajoyibotlar, arxeologik va me'moriy obidalar, mavjud bo'lib bu yurtda ko'plab hadisshunos olimlar hakimlar ko'plab san'at va hunar ahli hamda ahli donishlar yetishib chiqqan, ular orasida ayniqsa Al Hakim At Termiziy, Abu Iso Muhammad At Termiziy, Xo'ja Samandar Termiziy, Sobir Termiziy, Varroq Termiziy shular jumlasidandir. Shuningdek mintaqada o'zing strategik joylashuvi orqali mamlakatimizning janubiy darvozasi deya nom chiqargan Termiz alohida ahamiyatga egadir. Termiz O'rta Osiyoning eng qadimiy shaharlaridan biri bo'lib uning atrofida inson yashaganligining ilk belgilarining paydo bo'lishi neolit davriga borib taqaladi. Shahar hududiga ilk aholi hozirgi Boysuntog' va Ko'hitang tog'larining tog' oldi hududlaridan ko'chib kelgan degan qarash bor. Aynan Termiz atrofida ilk shahar belgilarining paydo bo'lishi qadimiy Termiz hududida olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida topilgan ashyolarga asoslangan holda eramizdan avvalgi 1- ming yillikning o'rtalariga borib taqalishi isbotlangan, yohud undan ham oldinroq qadimgi Baqtriya davlati tashkil topgan davrlarda er.av. 7- asrlar bilan ham belgilashadi ammo Termizning shahar qiyofasiga kela boshlashi undan keyingi davrlarda ro'y berdi. Termiz Ahamoniylar hukumronligi davrida bir shahar yo'siniga kira boshladi va Ahamoniylarining mahalliy aholidan o'lpon va soliq yig'ish markazi sifatida Termizdan foydalanishdi. Iskandar Zulqarnaynning O'rta Osiyoga bosqinchilik yurishlari davrida talofot ko'rdi ammo keyinchalik Iskandar hozirgi Amudaryo bo'yiga bir qal'a qurdird, Iskandar bu qal'adan qishlov joyi sifatida foydalandi ammo keyinchalik bu qal'a xaroba ahvolga tushib yo'q bo'lib ketdi ba'zi olimlar bu qal'ani eski Termiz deyishadi. Qal'aning hozirgi o'rni qerda ekanligini hech kim bilmaydi, ammo bu to'g'risida bir qancha farazlar bor, xususan Surxondaryo hududida ko'p yillar davomida arxeologik qidiruv ishlarini olib borgan akademik E.V. Retvladze Iskandarning bu qal'asi hozirgi Kampirtepa yodgorligi o'rnida bo'lgan deya ta'kidladi shaharning Iskandardan keyingi tarixi va rivojlanish davri Salavkiylar davri hisoblanadi bu davrda Termiz, Marg'iyona antioxiyasi, Balx kabiyuksak darajada taraqqiy etdi, „Ellin“ davri yashab ijod qilgan

yunon tarixchisi V.F.Minorskiy o'zining „yunon kechuvi“ sarlavhali asarida, „Yorgox“ (Yordagox) kechuvi yonida Termizga asos solingan deydi. O'rta Osiyo xalqlari bilan yunon makedon madaniyatining uyg'unlashuvi davrida, ya'ni Yunon Baqtriya podsholigi davrida Termiz o'zining ayniqsa sharq va g'arb sivilizatsiyalarining qorishishining tipik va takrorlanmas misoli hisoblanadi. Kushon saltanati davri Termizning gullab yashnagan davri hisoblanadi bu davrda u mamlakat poytaxti sifatida rivojlandi. Endi Termiz toponimining kelib chiqishi tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak bu atama 4-5- asrlarga oid arman manbalarida Dermat nomi bilan tilga olinadi. Shuningdek bu atamani Yunon Baqtriya hukmdori Demetriy nomidan kelib chiqqan deyishadi Demetriy – Darmita, Tarmita, Termita, Termiz, Termiz. Bir guruh olimlar Termiz ma'nosi qadimiy sharqiy Eroniy xalqlari tilidan tarjima qilganda, „Daryoning kechuv joyining nargi sohilida joylashgan aholi yashaydigan shahar degan ma'noni anglatadi deydi. Bundan tashqari qadimgi Tibet buddaviylarining qo'lyozmalarida shunday qiziq bir ma'lumot bor jumladan unda Dxarmamitra degan rohibning nomi uchraydi u Vaxsh bo'yidagi (Amudaryo) Tarmita degan shahardan ekanligi aytiladi bu Tarmita bilan Termiz nomini solishtirsak bu nom Termizning qadimgi nomlaridan biri bo'lishi mumkin. Umuman olganda shaharning nomi uning daryo bo'yida joylashganligiga bog'liq bo'lishi kerak menimcha Ma'lumot o'rnida shaharning qadimgi maydoni 500 gektarni tashkil etgan, shaharning tashqi devorlarining uzunligi 20 li yoki 10 km ni tashkil Amudaryo bu O'rta Osiyo mintaqasida juda katta iqtisodiy, siyosiy va juda muhim strategik kuchga ega bo'lgan muhim tabiiy kommunikatsiya tarmog'i hisoblanadi. Termiz shahri esa shu daryoning juda qulay bo'lgan o'ng qirg'og'ida joylashgandir aynan bu joylashuvi shu darajada qulayki shaharga suv tarmog'i yaqin, aynan katta o'zbek trakti to'g'ridan to'g'ri shaharga kelib tugaydi, bundan tashqari shahar hududi orqali Markaziy Osiyo mintaqasi va Rossiya kabi gigant davlatlarni quruqlik orqali janubiy Osiyo davlatlari bilan qolaversa Termiz – Mozori Sharif – Qobul – Peshovar temir yo'li orqali Pokiston temir yo'llari bilan va ular orqali, janubiy Osiyo mintaqasining katta iqtisodiy markazlaridan biri bo'lmish Karachi porti orqali Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari, xususan O'zbekistonni dengiz (yohud okean) bilan bog'lashdagi o'rni beqiyosdir. Hozirgi kunda Afg'oniston bilan O'zbekistonni bog'lovchi chegara ko'prigidan oyiga 4 ming tonna yuk o'tkazilmoqda agarda yuqoridagi temir yo'l qurib bitkazilsa bu ko'rsatgichni 40 ming tonnagacha oshirish mumkin. Termizning bu strategik joylashuvi qadim zamonlarda ham ipak yo'li savdosida katta shuhrat qozongan edi. Aynan Surxon vohasi orqali qadimgi karvon yo'llaridan buyuk ipak yo'li, la'l yohud lojuvard yo'li kabi karvon yo'llari o'tgan, qolaversa O'rta Osiyo mintaqasining janubiy hududlar orqali savdosi ham shu voha orqali olib borilgan bo'lib bu kabi karvon yo'llari hayotida vohaning eng katta iqtisodiy markazi bo'lmish Termiz katta o'rin tutadi va bundan tashqari vohamizga shimoliy tomondan kirishda darvoza vazifasini o'tovchi hozirgi Darband posti o'rnida qadimda karvonlarni o'tkazuvchi nazorat posti bo'lganligi haqida arxeolog olimlarimiz tomonidan ishonchli dalil ashyolar topilgandir, bu esa o'z o'rnida vohamizda savdo sotiqning va uni nazorat qilishning yuqori darajada bo'lganligi bilan izohlanadi, ma'lumot o'rnida aytib o'tish joizki tengsiz sarkarda, davlat arbobi san'at va madaniyat homiysi bo'lgan Amir Temur ham o'z mamlakati sarhadlarida savdo sotiqning rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan, jumladan u karvon yo'llari xavfsizligini ta'minlash maqsadida shunday chora tadbir o'tkazgan, jumladan u qaysidir hududda karvonlarga hujum uyushtirilsa o'sha hududning hokimini juda qattiq jazolagan. Shuni ham aytib o'tish joizki aynan Amir Temur va Temuriylar davrida Surxon vohasi shahzodalarni tayyorlaydigan maxsus hudud noiblik sifatida muhim o'rin tutgan. Shu o'rinda biz yana bir bor Amudaryoga yuzlanamiz Amudaryo Surxon vohasidan va bevosita Termiz shahridan bu qadar ko'p karvon yo'llarining kesib o'tishiga sabab aynan Amudaryodagi qulay kechuv joylarining shu hududga yaqin joylashganligi edi. Bu kechuvlar orasida Termiz

bo'yidagi kechuv, Payg'ambar orol kechuvi, Sho'rob kechuvi muhim o'rin tutadi, keyingi o'rinda Kelif, Kerki, Kerikcha, Farob kabilar ham muhim o'rin tutadi. Termizning Amudaryo boshida boshlanishi Amudaryo bo'ylab suv yo'lini nazorat qilishda ulkan ahamiyat kasb etadi. Bu kechuvlardan foydalanish bronza davridan boshlangan va kechuvlar keyinchalik So'g'diyona va Shimoliy Baqtriyani Hindiston bilan bog'lashda katta ahamiyat kasb etgan, ba'zi bir olimlarning fikricha Termizning vujudga kelishiga shu kechuv sabab bo'lgan ya'ni insonlar kechuvni nazorat qilish uchun Termizni bunyod etishgan degan qarashlar ham bor. Bu o'z o'rnida mintaqada kechuvning ahamiyatini oshiradi. Amudaryodagi bu kechuvlar qadimda ko'plab manzilgohlar vujudga kelishida muhim rol o'ynagan. Buning yorqin misoli Sho'rob kechuvi yonidagi Kampirtepa Termiz yirik port va savdo sotiq shahri bo'lishi bilan birgalikda shaharda hunarmandchilik ham yuksak darajada taraqqiy etgan sharqdan g'arbga tomon borayotgan sayyohlar cheksiz cho'lu biyobonni kesib o'tishda ularga eng kerak bo'ladigan narsa bu suv edi, lekin suvni buncha uzoq hudud ustidan tuya yoki otda olib yurish mushkul ish edi ular suvni yaxshi saqlash uchun termizda yasalgan ko'zalardan foydalanishgan. bu ko'zalar shu darajada mohirlik bilan ishlangan ediki. behostdan tuya yoki ot ustidan tushib ketganda ham sinib ketishi juda mushkul edi. Buning sababi termizlik kulollar ko'zalarning yasashda mumdan foydalanishgan edi. Termizda shuningdek hunarmandchilikning miskarlik sohasi ham ravnaq topgan aslida misdan naqshinkor idishlar yasashda buxorolik miskarlar usta bo'ilishgan ammo 11- 12- asrlardagi Termiz miskarlari ham mis idishlarga mayda gul solish san'atida shuhrat qozonganlar. Shuningdek Termizda kemasozlik ham yuqori darajada taraqqiy etgan Amudaryo bo'ylab Termizdan to Katgacha bo'lgan hududda savdo kemalari qatnovini yo'lga qo'yishda Termizda yasalgan qayiq'larning o'rni beqiyos bo'lgan. Islom dunyosida 6 ta buyuk muhandis bo'lsa ulardan ikkitasi aynan bizning o'lkamizdan yetishib chiqqan muhaddislar hadisshunos olimlar hisoblanadi ulardan biri Abu Iso Muhammad At Termiziy hisoblanadilar bu shaxs Termiz yaqinidagi mil.824- yilda Bug' qishlog'ida tavallud topgan.. So'zi hujjat xotirasi kuchli ishonchli olim degan nomlarni olgan bu shaxs dastlabki ta'limni o'z ona shahrida oladi undan keyingi yillarda esa Samarqand, Buxoro, Termiz, Marv, Balx kabi shaharlarga sayohat qilib u yerdagi ustozlardan ta'lim oladi. Termiziy sayohatini davom ettirar ekan Xuroson, Nishopur, Ray, Basra, Bag'dod, Kufa, Makkai Mukarrama va Madinai Munavvaraga borib ko'plab ustozlardan ta'lim oladi., Abu Iso Muhammad At Termiziydan bizgacha Sunnani Termiziy''(ishonarli to'plam) Shamoyili Muhammadiya Muhammad Sallollohu Alayhi Vasallanning''(surati va siyratlari) kabi 10 ga yaqin hadisshunoslik, tarix, fiqh fanlarga oid asarlari yetib kelgan. Muhammad Termiziyning,,Sunnani Termiziy'' asari islom olamidagi 6 ishonchli hadis to'plamlari orasida,,Sahihi Buxoriy '' va Sahihi Muslimdan keyingi manba hisoblanadi. Abu Abdullo Muhammad ibn Ali ibn xasan ibn Bishr Al Hakim at Termiziy xadisshunos, faylasuf, astronom, tarixchi olim. 869- yilda vafot etgan( tug'ilgan sanasi noma'lum). Hakim Termiziy to'g'risida Alisher Navoiyning,,nasoyim ul muhabbat asaridan '' ma'lumot olishimiz mumkin bundan tashqari bu shaxs haqida Germaniyalik bir qator sharqshunos olimlar ham shug'ullanishgan. Asarlari orasida,, Navro'znoma '' asari e'tibor molikdir. Uning xo'ja, hakim muhaddis, xadisshunos, quronxon, zoxid, imom, shayx, avliyo, sayyid, Al muazzin kabi nomlari bor. Navoiy bu zotni ulug' 96 pirlardan biri deb yozadi o'z asarida. Bu kabi unvonlardan ko'rinib turibdiki hazrati hakim Termiziy islom olamidagi mashhur shaxslardan biri bo'lgan. Hakim Termiziyning Temuriylar davrida ham nufuzi yuqori bo'lgan, xususan Amir Temurdan keyin taxtga kelgan Halil sulton hakim Termiziy maqbarasini ta'mirlashni buyurgan va unga yangidan qabr toshi qo'ydirgan, ammo qabrtoshini inglizlar maqbaradan olib ketgan va Londondagi Britaniya muzeyiga eksponat sifatida qo'yishgan. Mustaqillik sharofati bilan Hakim Termiziy va Iso Termiziylarning ziyoratgohlari ta'mirdan chiqdi va Al Hakim at Termiziy ziyoratgohiga

yangi qabr toshi qo'yildi. Bu ziyoratgohlarning hozirgi kunda ichki va tashqi turizmdagi ahamiyati yuqoridir. Agardasiz betakror O'zbekistonga tashrif buyursangiz sizlarni Surxon elida quchoq ochib kutib olishga va'da beramiz va albatta ko'hna va navqiron Termizda mehmon bo'lishingizni so'rab qolamiz.

## Foydalanilgan adabiyotlar.

1. 1.9-12- asrlarda Termiz madaniyati.A.Isayev.S.Ergasheva.O.Isayev.,„Yangi asr avlodi Toshkent”.
2. 2.Surxondaryo etnografik makon.S.Tursunov.T. Pardayev.H.Mamadiyorov. „ Akademik nashr” Toshkent 2012.
3. 3.9- 12- asrlarda Termizda madaniyat, adabiyot, fan va islom dini. „Surxon nashr”Termiz 2017.
4. 4.Imom Termiziy IBXITM 2022.
5. 5.K.Yashin Markaziy Osiyo kommunikatsiyasida suv yollarining tutgan o'rni,, Durdona nashr”Buxoro 2021
6. 6.Sh.Pidayev Qadimgi Termiz.,„Fan”Toshkent 2001.